

**BOSHLANG`ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O`QUVCHILARNI
KREATIV FIKRLASHGA O`RGATISH YUZASIDAN METODIK
TAVSIYALAR**

Meliboyeva Nigoraxon Ne`matovna

O`zbekiston tumani 49-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Boshlang`ich ta`lim umumiy o`rta ta`limning asosiy poydevori, o`quvchilarning kelajakda komil inson bo`lib voyaga yetishini ta`minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang`ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang`ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo`naltirilgan bo`ladi. 6-10 yoshli bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas`ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang`ich ta`lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang`ich ta`lim metodikasining vazifalaridan biri o`qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta`minlashda o`qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta`sirlarini jadallashtirishdan iborat. Matematikadan boshlang`ich ta`lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o`qitish nazariyasini (matematik didaktikasini) o`z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o`zi yetarli emas. O`qitishning ma`lum mazmuni va o`qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta`sirlanadigan u yoki bu o`quv yo`nalishi uchun eng samarali usullarni qo`llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o`zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Boshlang`ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang`ich sinf o`qituvchisi uchun o`quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir. Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O`qituvchi darsda yuzaga keladigan metodik masalaning mazkur o`quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo`lish talab etiladi.

MUNOZARA Matematika so`zi grekcha «mathema» so`zidan olingan bo`lib, uning ma`nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o`rganadigan obyektini fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish quyidagi maqsadini o`z oldiga qo`yadi: a) o`quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o`rgatish, o`quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy

masalalarni hal qilishga o'rgatish, b) matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan. d) o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari: 1) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi, 2) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi kerak; 3) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi kerak; 4) ta'limni insonparvarlashtirish; 5) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadrdimmati, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib beradi; 6) o'qitish metodikasi I–IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V–VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishni ko'rsatadi. Ularning ilmiyizlanishda qo'llanilishi. **METODOLOIYA** Boshlang'ich sinf o'quvchilari egallashlari kerak bo'lgan ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni : — million ichidagi sonlarni; — natural sonlar qatorining cheksizligini; — o'nli sanoq sistemasida sonlarning har xil sanoq sistemasida yozilishini; — pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalarini. — atrof-muhitda mo'ljal ola bilish marshrutni (yo'nalishni)rejalashtirish, harakat yo'lini tanlay olish va h.k.)ni; — taqqoslash va turli alomatlar: uzunligi, yuzi, massasi, sig'imiga ko'ra tartibga sola olishni; — soatga qarab vaqtni aniqlashni (soat va minutlarda); — maishiy-hayotiy vaziyatlar (savdo-sotiq, o'lchash, tortish va h.k.) bilan bog'liq hisoblashlarga oid masalalarni yechish; — o'lchamlarni ko'zda «chamalab» baholash; — mustaqil konstruktorlik faoliyati (turli-tuman geometrik shakllarni qo'llanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda). — 1000000 ichida sonlarning o'qilishini; sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi ko'rinishidagi yozilishini; — sanoq texnikasi (to'g'ri va teskari tartibda sanash, juftliklar va o'nliklar bilan sanash, sondan oldin va keyin keluvchi sonni aytish)ni; — natural sonlarni o'zaro taqqoslash: «>», «Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish vazifalari va bolalar bog'chasida arifmetika asoslarini tarkib toptirish, miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarni rivojlantirish o'qitishning asosiy shartidir.

Har bir mashg'ulotda tarbiyachi mavzu mazmunining asosiy masalalari va uni darsda ishlash metodikasini ochib beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, berilayotgan tavsiyalar, odatda, bolalarga berilishi kerak bo'lgan topshiriqlar, mashqlar, savollarning tipik namunalaridir. Bunday mashqlar sonini o'qituvchi sinf bilan ishlashning aniq shart-sharoitlarini hisobga olib, o'zi aniqlashi kerak.

Dastlab, bolalar ongiga elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun ularga kundalik rejim o'rgatilishi jarayonida matematik tushunchalar va iboralar shakllantiriladi. Maktabga tayyorlov guruhida bolalarni o'qitishda didaktik ko'rsatma materiallardan keng foydalanish xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko'rgazma tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar ham namunalar sifatida qaralishi mumkin. O'qituvchi ularga o'zida bo'lgan ko'rsatma-qo'llanmalarni hisobga olib tuzatishlar

kiritishi mumkin. Ko'pchilik hollarda tavsiya etilayotgan og'zaki mashqlar materialini o'qituvchi turli variantlarda berishi, Ba'zan esa sinfning tayyorgarligiga qarab almashtirishi ham mumkin. O'qituvchi tavsiya etilayotgan didaktik o'yinlarga ham ijodiy yaqinlashishi kerak, bunda o'yinlarni o'tkazishda foydalaniladigan qo'llanmalarni variatsiyalab, imkoni boricha ko'proq har xilliklar kiritishi, har bir mashg'ulotning konkret vazifalarini hisobga olib, o'zi topgan o'yinlarni sinash maqsadida darslarda o'yinlar tashkil qilishi mumkin.

Mashg'ulotlarda didaktik o'yinlar, ko'rgazmali materiallardan keng foydalaniladi.

Bolalar mashg'ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim :

1. Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtirib olish.
2. Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash.
3. Bolalar faoliyatini o'zgartirib turishga, qiziqishga e'tibor qilish.
4. Mashg'ulot o'rtasida harakatli o'yinlar o'tkazishni rejalashtirish.
5. Mashg'ulot davomida bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish.
6. Bolalarning xilma-xil javoblarini rag'batlantirish.

Dastur materialini mashg'ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko'nikmalariga, ularning tayyorligiga e'tibor berish lozim. Ertaklar olamiga sayohat, predmetlar nomlari, sanog'i o'rganiladi.

Maxsus terminlarni to'g'ri qo'llay bilish katta ahamiyatga ega. Masalan, son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak.

«Qaysi son katta, qaysinisi kichik deb so'raladi. (qaysi raqam katta deyish mumkin emas.)

Mashg'ulotda hamma bolalarning faol ishtirok etishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bilan bir qatorda signalli kartochkalar bo'lishi tavsiya etiladi.

Agar o'rtog'ining javobi to'g'ri bo'lsa qizil kartochka, o'rtog'ining javobi uni qoniqtirmasa ko'k kartochka ko'tarishi lozim.

Bunda hamma bolalar o'rtoqlarining javobini diqqat bilan eshitishga harakat qiladilar, intizom buzilmaydi, shu bilan bolalarning test sinovlariga tayyorgarligi ham hisobga olinishi lozim.

0 dan 9 gacha raqamlar bilan tanishtirish.

Raqam – sonning shartli belgisidir. Bolalarga sonni tushuntirishda raqam qo'shimcha, yordamchi bosqichdir.

Bolalarni raqamlarni yozishga o'rgatilmaydi, faqat bocma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Bolalar har bir raqam qaysi sonning belgisi ekanligini ajrata bilishlari lozim.

Hammasi bo'lib 10 ta raqam bor:

0,1,2,3,4,5,6,7,8,9. 10 raqami yo'q. 10 soni ikkita raqam: 1 va 0 bilan belgilanadi. Bitta mashg'ulotda bitta yoki ikkita raqam bilan tanishtirish mumkin.

Masalan "1" raqami bilan tanishtirishda tarbiyachi sanoq kartochkasiga bitta o'yinchoq qo'yadi, ularning oldiga 1 ta doirali kartochkani qo'yadi. 2 ta bolani chaqirib, biriga bir marta sakrash, ikkinchisiga bir marta stolga taqillatishni taklif etadi. Bolalar sanab, hammasi «bittadan» degan xulosa qiladilar.

Keyin "1" raqamini ko'rsatib bu sonni ko'rsatuvchi shartli belgidir, har bir son o'z belgisiga egadir deb tushuntiradi. Bolalar bog'chasi bilan boshlang'ich sinf orasida uzviylik shundan iboratki bular bir-birini to'ldirib boradi.

Bolalar ustma-ust, tagma-tag terib qo'yish, sanash orqali to'plamlarning teng, notengligini aniqlaydilar

Tenglik – notenglik munosabatlarini aniqlashda ishora - belgilari simvollaridan foydalaniladi.

Qaysi qatorda ko'proq, qaysi qatorda kamroq? 5 soni 6 dan kamroq,

5 6 tengsizlikdan tenglik hosil qilish uchun nima qilish kerak? deb so'raladi.

Ini qo'shib tenglik hosil qilinadi va birni ayirib barobarni yozish yo'li tushuntiriladi. $6=6...$

6-7 yoshdagi bolalar juda o'yinqaroq bo'ladilar. Shuning uchun uyda yoki bog'chada ular bilan o'yinlar o'ynashga, mashg'ulotlar o'tkazishga to'g'ri keladi. Chunki o'yin ularning ko'rish, eshitish va idrok qilish uquvini o'stiradi, predmetlarning shakli, katta-kichikligi, rangini ajrata bilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'yinlar nafaqat predmetning shakli yoki rangini ajratishga, balki yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning nutqi, tafakkurining rivojlanishiga ham yordam beradi.

Bu paytda o'g'il bolalar otasiga, qiz bolalar esa onalariga o'xshashni juda xohlaydilar. O'ynayotgan o'g'il-qizlarning o'yinlariga hech e'tibor qilganmisiz? Ko'pgina kichiktoylar uylaridagi ota-onalarining, bog'cha opalarining, buvayu buvijonlarining muomalalarini o'yinga ko'chiradilar. Ba'zida har bir bolaning xatti-harakatiga qarab ularning uyida qanday kayfiyat, o'zaro munosabatlarning qandayligini bemalol bilib olish mumkin.

Ba'zan bolalar o'yinqaroqlik qilib kattalarning murojatini eshitmasliklari yoki aytganlarini qilmasliklari mumkin. Bunda bolaga qo'pol muomalada bo'lib, ko'nglini ranjitmaslik yekrak. Aks holda bolalar injiq, o'jar bo'lib qoladi. Hamma ishingizni 5-10 daqiqaga tashlab, bolaning nega javob bermayotganiga, shu tobda bolaning nima bilan band ekanligiga hamda nima bilan qiziqayotganiga ahamiyat bering. Iloji boricha u bilan o'sha mashg'ulotni davom ettiring. Agar bolaning qilayotgan ishi noto'g'ri yoki noo'rin bo'lsa, unga buni tushuntirishga harakat qiling. Aksincha bo'lsa, uni maqtang va yordam bering.

Ba'zi ota-onalar bolaga uni qanday va qay darajada bajarganligi bilan qiziqmaydilar. Yoki aksincha, qilgan ishini noto'g'ri bajarsa ham hadeb

maqtabayveradilar. Bu esa uning taltayib ketishiga va bundan keyingi topshiriqlarni uncha mensimay, natijasiga e'tibor bermay bajarishga olib keladi.

Maktabga tayyorlanayotgan bolalarga asta-sekin sanoq sonlarni o'rgatish ham foydadan holi bo'maydi. Ko'pgina onalar yoki tarbiyachilar bolalarni 3-4 yoshidanoq sanashga o'rgatadilar va bolalarni maktab yoshiga yetgach, bemalol o'ngacha sanashni biladilar. Lekin endi siz o'ngacha bo'lgan raqamlarni kartondan yasangda, stol ustiga yoyib chiqing. Bola uni 1 sonidan 10 sonigacha to'g'ri ketma- ketlikda yoki aksincha, 10 sonidan 1 sonigacha qo'yib chiqishi kerak.

Bolaning diqqatini jamlash uchun unga ozgina fursat bering-da, quyidagi mashqni ham birgalikda bajarib ko'ring. 10 sonigacha bo'lgan raqamlarning orasidan ikkitasini olib tashlang yoki boshqa ikki sonni qo'shib qo'ying. Bir ozdan so'ng bola qaysi raqamning yo'qligi yoki ortiqcha raqamni aniqlab berishi kerak.

Asta-sekinlik bilan o'yinlarni murakkablashtirib borishingiz mumkin. Chunki bolaning diqqat turg'un, xotirasi esa ancha rivojlangan.

Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqeylik qanday bo'lsa uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogni vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi – inson ongidan tashqari ob'ektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo'lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta'limining birinchi pog'onasida olgan juz'iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf matematikaga oid qiziqarli mavzularga krossvord, rebus va ijodiy izlanishga undaydigan mashqlarni kiritish mumkin. Bunday qiziqarli masalalar quyidagi didaktik talablarga javob berish kerak.

1.Qiziqarli masalalar tezkor va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ularni yechish jarayonida ijodiy motivatsiya hosil qilishi.

2.Taqdim etilayotgan materialning o'quvchilar uchun yangi va qiziqarli bo'lishi.

3. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati darajasini oshirish maqsadida topshiriqlarning mazmunida uni turli usullar bilan yechilishining ko'zda tutilishi.

4.Qiziqarli masalalarning yechish jarayonida bosqichma-bosqich o'quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarishga yo'naltirilishi.

5.O'quvchilarning mustaqil ishlashini taminlash uchun topshiriqlarning variativ bo'lishi.

6.Topshiriqlarni o'quvchilarning fazoviy tasavvur va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi.

Matematika o'qitishda krossvord va rebuslardan foydalanish o'quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so'z boyligini oshirish va tez fikrlashga o'rgatadi. Matematika o'qitishda rebusni tuzishda turmushda uchraydigan va o'quvchilarga ma'lum bo'lgan obyektlar, shakllar yoki tajribalarni tanlash maqsadga

muvoqif. Rebusda berilgan turli hil obyektlar, shakllar va tasvirlar o`quvchilarga ma`lum bo`lgani uni o`qitishning hamma bosqichida qo`llash mumkin. O`quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o`yinlardan unumli foydalanib faol o`quv – biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o`quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tolipov O'.,No'monova N.O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.G'Y Xalq ta'limi. 2002/ 4.25 b.
2. Begmatov U.E.Umumiy o`rta maktablarda tashqari ishlarni dars bilan boqlashning nazariy-metodologik asoslari.Diss...kand.ped.nauk.T.2004.-
3. Asqarov I.R.,To`xtaboyev N.X.,G`opirov K.G'.Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun darslik.-Toshkent